

## BANKLAR FAOLIYATIDAGI VALYUTA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI

*To`xtamatov Javlonbek Qodirjon o`g`li*

*Toshkent shahar, Bektemir tumani*

*Bank va moliya akademiyasi talabasi*

**Annotatsiya:** Aytish mumkinki, valyuta operatsiyalari bilan bog`liq tarzda yuzaga keladigan turli murakkab jarayonlar, xususan valyuta risklarini oldindan payqash hamda ularning ta`sirini pasaytirish bo`yicha chora-tadbirlarni o`z vaqtida amalga oshirish muhimdir. Ushbu maqolada valyuta risklarini boshqarish va ularni bartaraf etish yuzasidan qator metodologiyalar ko`rib chiqiladi.

**Kalit so`zlar:** daromadlilik, likvidlilik, risk, bank, valyuta, boshqarish, operatsiya, tijorat banki.

### KIRISH

Valyuta operatsiyalarining samaradorligi va risk o`rtasidagi optimal darajadagi balans faoliyatning har bir jihati bo`yicha kompleks talablarni jamlaydi:

1. Daromadlilik (shaxsiy vositalarda daromadlilikning minimal darajasi).
2. Likvidlilik (davrlar bo`yicha likvidlik koeffitsientining yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan minimal miqdori).
3. Risk (bank bo`yicha va alohida operatsiyalar yuzasidan riskning yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan maksimal darajasi).

Operatsiyalar samaradorligi va risk o`rtasidagi optimal balans hamda bank maqsadlarining optimalligi aktivlarni boshqarish strategiyasining kompleks tanlov kriteriyalaridan biridir. Risk darajasi va operatsiyalar samaradorligi o`rtasidagi o`zaro kelishuv aniq bir tijorat bankning joriy faoliyati prioritetidan kelib chiqib alohida aniqlanadi.

Fikrimizcha, tijorat bankning moliya bozoridagi o`z pozitsiyasini mustahkamlashdagi muhim omil bo`lib valyuta operatsiyalari bo`yicha halqiluvchi boshqaruvni qabul qilishni rag`batlantiruvchi tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Yirik tijorat banklarida o`tkazilayotgan valyuta operatsiyalari sifatini oshirish va valyuta riskini kamaytirishni boshqarishni oshirish maqsadida ko`rsatkichlarni qayta ishlash, biznes-tizim oqimlari ma`lumotlari integratsiyasi ma`lumotlarini saqlash va qayta ishlash tizimini markazlashtirishning integratsiyalashgan bank tizimini tashkil lozim. Yagona bank tizimini joriy etish nafaqat muassasaning har tomonlama vazifalarinihal etishga imkon beradi, balki: bank faoliyatini taktik, tezkor va strategik tarzda kompleks rejalashtirishni bildirib, innovatsion texnologiyalarni qayta ishlash,

kompleks marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, boshqaruvlar sonini qisqartirishni, operatsiyalarni birinchi hisob bo‘yicha markazlashtiradi.

Banklar faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan risklarni turli xil ko‘rsatkichlar orqali ifodalash ularni boshqarish va bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Risklarning tasniflanishi nuqtai nazaridan, ushbu ko‘rsatkichlarni biz ikki turga ajratgan holda zaruriy qiymati darajasining bo‘lishi lozim bo‘lgan miqdori foizlarda ifodalanadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Valyuta risklarini boshqarishning forward, fyuchers, opsiyon va oltin dinar instrumentlarining solishtirma tahlili [6]

| Ko‘rsatkichlar turi           |                 | Birinchi turdagi ko‘rsatkichlar                          | Ikkinchi turdagi ko‘rsatkichlar  | Qiymat indeksi, foizda |
|-------------------------------|-----------------|--|--|------------------------|
| 1                             | 2               | 3  | 4  | 5                      |
| Risk darajasi                 | Likvidlik riski | 1. Likvidlik darajasi                                    |  | $\geq 25$              |
|                               |                 | 2. Debitning muhim bog‘liqligi                           |  | $\geq 60$              |
|                               |                 | 3. Likvidlik yetishmasligi darajasi                      |  | $\geq -10$             |
|                               | Kredit riski    | 4. Muammoli aktivlar darajasi                            | 4. Muammoli qarzlar darajasi   | $\leq 4$<br>$\leq 5$   |
|                               |                 | 5. Ma’lum guruhning kredit ulushi darajasi               | 5.1. Ma’lum guruhning qarz ulushi darajasi   | $\leq 15$<br>$\leq 10$ |
|                               |                 | 6. Korrelyatsiya darajasini umumlashtirish               |  | $\leq 50$              |
|                               | Bozor riski     | 7. Ochiq valyuta pozitsiyalarining jamlanganlik darajasi |  |                        |
|                               |                 | 8. Interest rate riskining sezuvchanligi                 |  |                        |
|                               | Operatsion risk | 9. Operatsion riskning yo‘qotilish darajasi              |  |                        |
| Risk ko‘chishi (migratsiyasi) | O‘tgan qarzlar  | 10. O‘tgan qarzlarning ko‘chish darajasi                 | 10.1 O‘tgan qarzlarning ko‘chish darajasi<br>10.2 Xalqaro qarzlarining ko‘chish darajasi |                        |

|                              |                                     |  |   |              |
|------------------------------|-------------------------------------|--|---|--------------|
|                              | Bajarilmaydigan (Muammoli) qarzlari | 11. Bajarilmaydigan qarzlarning ko'chishi darajasi     | 11.1 Substandart risklarning ko'chishi darajasi<br>11.2 Shubhali qarzlarning ko'chishi darajasi |              |
| Riskning so'ndirilishi       | Foydalilik                          | 12. Narx/foyda darajasi                                |   | ≤35          |
|                              |                                     | 13. Aktivlarning qaytishi                              |   | ≥0,6         |
|                              |                                     | 14. Kapitalning qaytishi                               |   | ≥11          |
|                              | Zaxiralarning mosligi darajasi      | 15. Aktivlarning yo'qotish zaxirasiga mosligi darajasi | 15.1 Qarzlarning zaxiraga mosligi darajasi  | >100<br>>100 |
| Kapitalning mosligi darajasi | 16. Kapitalning mosligi darajasi    | 16.1 Asosiy kapitalning mosligi darajasi               | ≥8<br>≥4  |              |

2-jadval

**Valyuta risklarini boshqarishning forward, fyuchers, opsiyon va oltin dinar instrumentlarining solishtirma tahlili**

|   | Forward     | Fyuchers    | Opsiion     | Oltin dinar   |
|---|-------------|-------------|-------------|---|
| <b>Kamchiliklari</b>                          |             |             |             |   |
| <b>1</b>                                      | <b>2</b>    | <b>3</b>    | <b>4</b>    | <b>5</b>  |
| Dastlabki foyda/depozit                       | Mavjud emas | Mavjud      | Mavjud emas | Mavjud emas   |
| O'zgaruvchi foyda                             | Mavjud emas | Mavjud      | Mavjud emas | Mavjud emas   |
| Risklarni xedjirlovchi spekyatorlarga ehtiyoj | Mavjud emas | Mavjud      | Mavjud      | Mavjud emas   |
| Qulay faoliyatdan kechish                     | Mavjud      | Mavjud      | Mavjud emas | Mavjud  |
| Spekulyatsiya                                 | Mavjud      | Mavjud      | Mavjud      | Mavjud emas (ikkala qismida ham spot transaksiyalari bor) |
| Arbitraj                                      | Mavjud      | Mavjud      | Mavjud      | Mavjud emas   |
| “Barter” muammosi                             | Mavjud      | Mavjud emas | Mavjud emas | Mavjud emas   |
| Transaksiya narxi/brokerlikhaqi               | Mavjud      | Mavjud      | Mavjud      | Mavjud  |
| <b>Afzalliklar</b>                            |             |             |             |   |
| <b>1</b>                                      | <b>2</b>    | <b>3</b>    | <b>4</b>    | <b>5</b>  |

|                                      |  |             |             |             |
|--------------------------------------|--|-------------|-------------|-------------|
| Diversifikatsiya afzalligi           | Mavjud emas                                | Mavjud emas | Mavjud emas | Mavjud      |
| Bozor likvidligi                     | Mavjud emas                                | Mavjud      | Mavjud      | Mavjud emas |
| Har qanday valyutani xedjiray olishi | Mavjud ulushni topish qiyinbo‘lishi mumkin | Mavjud emas | Mavjud emas | Mavjud      |
| Rasmiy obligatsiyalar                | Mavjud                                     | Mavjud      | Mavjud emas | Mavjud      |

Fikrimizcha, oltin dinar instrumentini forvard shartnomasiga o‘xshashligini ko‘radigan bo‘lsak, oltin dinarda “barter” muammosi, spekulyatsiya va arbitrajlar kabilar olib tashlangan, ammo fyuchers va opsiyolarga solishtirganda nisbatan birmuncha yaxshiroq vosita ekanligi ko‘zga tashlanadi.


Avstriya davlatida, boshqa davlatlar singari, valyuta pozitsiyasining kapital yetarliligi uchun limitlar o‘rnatilmagan, lekin ochiq valyuta pozitsiyasida yuzaga keladigan risklarni qoplash uchun minimal kapital talabi miqdori o‘rnatilgan.

Agarda kredit institutlari ochiq valyuta pozitsiyalari o‘z mablag‘larining 2 foizidan oshsa, valyuta riskining ochiq valyuta pozitsiyasi uchun minimal kapital talabi 8 foiz bo‘ladi. Mazkur vaziyatning susayishi yuzaga kelishi bilan kredit institutlari kapitalga bo‘lgan talabning minimal miqdori quyidagicha hisoblanadi:

– mos pozitsiyadan kapitalning minimal talabi chegirib tashlangandanso‘ng valyuta 8 foiz atrofida bo‘lishi kerak;

mos pozitsiya uchun kapitalning minimal talabi 4 atrofida bo‘lishi kerak.

Risklarni boshqarishning turlicha bosqichlari qatorida riskning boshqarishning zamonaviy bosqichlarini amalga oshirish riskni boshqarishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining Markaziy banki tomonidan “bank faoliyatining risklarini minimallashtirish” vazifasini hal etish yuzasidan, ichki nazorat xizmatini tashkil etish belgilangan. Mazkur riskni minimallashtirish ishlari uchta darajaga ajratiladi: individual (xodim), mikro va makro darajada (1-rasmga qarang).



1-rasm. Bankda riskni nazorat qilish tizimi [5]

Birlashgan Qirollikda ochiq valyuta pozitsiyasi quyidagilar orqali hisobga olinadi:

1. Jami oltin pozitsiyasi.
2. Jami spot pozitsiyasi.
3. Jami forvard pozitsiyasi.
4. Moliyaviy instrumentlar<sup>7</sup> farqi uchun jami shartnomalar vavaljutadagi boshqa vositalar.
5. Qaytmas kafolatlar va shu kabi qoplanmas instrumentlar valyutadagi pozitsiyaning o'sishini ta'minlovchi bo'lib hisoblanadi.
6. Valyuta opsionlari, svoplar, forvard, fyucherslar operatsiyalari umumiy pozitsiyaning o'sishiga olib keladi.

Quyidagilar valyutalarni hisoblashda e'tiborga olinmaydi:

- kapital resurslardan ayirib tashlangan xorijiy valyuta aktivlar;
- xedjirlangan pozitsiya;
- kapital resurslarga bo'lgan talabga nisbatan kapital resurslar darajasining valyuta risklari salbiy ta'siridan xedjirlashga ko'ra olingan pozitsiya;
- valyutadagi sof foyda yoki xarajatlarning to'liq xedjirlangandagi

transaksiyalari.

Avstraliyada biznes kapitalining xedjirlanishi dastlab derivativlarga kirishdan oldin sof pozitsiya kamaytiriladi. Ushbu usul aksariyat hollarda yirik firmalarning kapitali miqdori hisoblashga murakkab bo‘lgan vaziyatlarda qo‘llaniladi. Ushbu xedjirlash usuli risklarni me‘yor darajasiga tushirish uchun yetarli bo‘lmaganda, firmalar qimmatli qog‘ozlardagi aniq bo‘lgan derivativlar shartnomalarni tanlashga kirishadilar [4].

Bank kros-kurs foiz svoplari orqali xedjirlashni svop pozitsiya holatini qoplash uchun foydalaniladi. Svop transaksiyalari quyidagi xarakteristikalariga ega:

– bank svop shartnomalarini amalga oshirish bilan AQSh dollaridagi boshlang‘ich qarz majburiyati summa miqdorini so‘nggi summa miqdoriga teng bo‘lgan darajada oladi. O‘z navbatida, aktivlarini qarzga berishni muvofiqlashtirish orqali bank Avstraliya dollarini (shartnoma vaqtida spot darajalari bilan) yetkazib berishni o‘z zimmasiga oladi. Ushbu kafolatlash bilan balans pozitsiyasi xedjirlangan hisoblanadi.

– bank o‘z majburiyatlarining AQSh dollaridagi obligatsiyalariga svop operatsiyalari davrida AQSh dollari ko‘rinishida svoplardan foiz to‘lovlarini oladilar. O‘z navbatida, bank Avstraliya dollaridagi qarzaktivlaridan olinadigan foizlar orqali ifodalanadigan Avstraliya dollarida to‘lanadigan foiz to‘lovlarini amalga oshiradilar. Ushbu kafolatlash orqali transaksiya pozitsiyasi xedjirlangan hisoblanadi.

Yana shuni ta‘kidlash joizki, svop transaksiyalari orqali qoplanadigan valyuta riski zimmasida bo‘lgan yakuniy sub’ekt norezident hisoblanadi, so‘ngra esa ushbu oxirgi riskni Avstraliya banki valyuta majburiyatlari orqali olishga erishadi. Norezidentlar-xorijiy institutlar, avstraliya dollaridagi qarzni oladigan va xorijiy valyutani qaytarish uchun ushbu pozitsiyani xedjirleydigan sub’ektlardir.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, tijorat banklari faoliyati davomida valyuta operatsiyalari natijasida yuzaga kelayotgan risklarni oldindan payqash hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishning zaruriy shart-sharoitlarini yaratish muhim hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, valyuta risklarini boshqarishda tajribadan o‘tgan ilg‘or xorijiy tajribalarni tadqiq etish, ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini respublikamiz sharoitida qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan o‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-5992-sonli Farmoni 2020 yil 12 yanvar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi 3254-sonli nizom. 2020 yil 30 iyun.

3. Pashkovskaya I.V., Xotkin A.V. Tijorat bankini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda risk appetite ahamiyati // Iqtisodiyot: kecha, bugun, ertaga. 2020. 10-jild. № 3A. 57-64-betlar. DOI: 10.34670/AR.2020.94.4.007
4. Kris Bekker, Daniel Fabbro. Xedjlash orqali valyuta ta'sirini cheklash: Avstraliya tajribasi RDP 2016-09. – rr10. Jami 38.
5. Rossiya Federatsiyasi Markaziy bankining "Bankda ichki nazoratni tashkil etish to'g'risida" gi Nizomi, - 2017. - 509-son.
6. Ahamed Kameel Mydin Meer. Valyuta riskini forwardlar, fyucherslar, opsiyonlar va oltin dinor bilan himoya qilish: taqqoslash uchun eslatma. Malayziya Xalqaro Islom Universiteti Biznes boshqaruvi bo'limi. 2012.
7. Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, & Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA NOGIRONLARNI ZAXIRALANGAN ISH O'RINLARIGA ISHGA JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 2), 281-285.
8. Рашидов Диловар Нажмиддинович, & Холбоев Йигитали Авганович (2022). КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРДА ИЖТИМОЙ ХИМОЯГА МУҲТОЖ ШАХСЛАР УЧУН ИШ ЎРИНЛАРИНИ ЙЎНАЛИШЛАР КЕСИМИДА ЗАХИРАЛАШНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ. Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой экономики, 1 (1), 73-78. doi: 10.24412/c1-36899-2022-1-73-78
9. <https://annualreport.>
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)